





ALISHER NAVOIY

SAB' AI  
SAYYOR

*(DOSTONING IXCHAM NASRIY BAYONI)*



Toshkent  
«Yangi asr avlodi»  
2009

Alisher Navoiy “Xamsa”sining to‘rtinchi dostoni bo‘lmish “Sab’ai sayyor” asarining qisqacha nasriy bayoni ifoda etilgan mazkur kitobchada shoh Bahrom va uning Dilorom bilan munosabati tahliligina emas, shuning barobarida shoh va uning kanizi o‘rtasidagi yuksak, pokiza va samimiy muhabbat tarixi ham batafsil yoritib berilgan.

Doston matnini qisqartirib bayon etunchi:  
Anvar HOJIAHMEDOV,  
filologiya fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:  
Vahob RAHMONOV,  
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Taqrizchi:  
Omonillo MADAYEV,  
O‘zMU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

ISBN 978-9943-08-398-1

© Alisher Navoiy. «Sab’ai sayyor». «Yangi asr avlodi», 2009-yil

## MUQADDIMA

Alisher Navoiy o‘z “Xamsa”sining to‘rtinchi dostoni bo‘lmish “Sab‘ai sayyor” asarini yozishga kirishar ekan, Nizomiy va Xisrav Dehlaviylarning an‘analarini davom ettirib, Eron shohlaridan bo‘lgan Bahrom binni Yazdijurdning hayoti va faoliyatiga murojaat etishni lozim topdi. Ajam mamlakati tarixiga bag‘ishlangan barcha asarlarda bu hukmdorning taxtga chiqishi bilan bog‘liq ajoyib hodisalar, uning adolatli siyosati, qiziqarli hayot tarzi, “Havarnaq” deb atalgan muhtasham qasr qurdirishi, ov qilishga bo‘lgan ishtiyoqi, Diloromi changi nomli sozanda va xonanda qiz bilan munosabatlari, shuningdek, halokati tafsilotlari atroflicha bayon qilinadi. Alisher Navoiyning “Tarixi mulki ajam” asarida ham shoh Bahrom faoliyati ancha keng aks ettirilgan.

Shoir jahon tarixidan munosib joy egallagan ushbu hukmdor haqida qalam surishga kirishar ekan, o‘z salafilariga qaraganda boshqacharoq g‘oyaviy-badiiy niyatni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi, ya‘ni dostonda shoh Bahromning taxt egallashi bilan bog‘liq voqealardan boshlab o‘limiga qadar yuz bergan barcha hodisalarni to‘la tasvirlash yo‘lini tanlamay, uning Dilorom bilan munosabatiningina bayon qilish va u voqe‘likni shoh va uning kanizi o‘rtasidagi yuksak, pokiza va samimiy muhabbat tarixiga aylantirishni, asardan o‘rin oladigan yetti hikoyani esa bevosita asosiy mavzu bilan uzviy bog‘liq holda bayon etishni ma‘qul deb bildi. Chunki bir shoir tasvirlagan tarixni yana takrorlash nomaqbulligi, ya‘ni:

*Bir deganni iki demak xush emas,  
So‘z chu takror topli, dilkash emas,*

ekanligini ta'kidlab, shu usulni tanlagan edi. O'zidan oldin bitilgan "Xamsa" lardagi Bahrom ta'rifi ham shoirga yoqmagani edi, xususan, asarda bir qator kamchiliklar ko'zga tashlanib turardi.

*Biri bukim, yo'q, anda moyayi dard,  
Qildilar ishq so'zidin ani fard.  
Kim birov mehridan bari bo'lg'ay,  
Boqma, gar mehri xovariy bo'lg'ay!  
Bo'lsa tarix alarga gar mallub,  
Anda so'z bog'lamoq emasdur xo'b.*

Yetti qasrga olib kelingan malikalarga murojaat qilib:

*Hukm qilg'ayki, siz fasona dengiz,  
Demangiz uzru, bebahona dengiz!*

*Bo'lung uyg'oqlik ichra farsuda,  
Men bo'lay uyqu ichra osuda*

deb buyruq berishini nodonlik deb baholagan shoir, qizlarning afsona aytishini ham haqiqatdan uzoq hodisa, deb hisoblaydi va:

*Bo'lsa ham aql man' qilmasmu?  
Qissa aytur kishi topilmasmu?*

deb ta'kidlar ekan, Bahromni butun doston bo'yicha maqtashni nojoiz deb biladi.

*Bo'ldi, farzan, bu nav' bul'ajab ish,  
Bul'ajabroq yana bu ish bo'lmish.  
Ki munungdek iki vahidi zamon,  
Har bir o'z vaqtida faridi zamon.  
Buyla nodon uchun yozib avsof,  
Anga qilg'aylar o'zlarin vassof.  
Madhini behisob yozg'aylar.*

*Har birmi nazmida ko‘rub ko‘p ranj,  
Qilg‘ay o‘z “Panj ganji” din bir ganj.  
Olloh-ollol! Ne ganj bo‘lg‘ay bu!  
Sarbasar elga ranj bo‘lg‘ay bu!*

deb taassuf izhor qilgan edi.

O‘z salafлари ijodida Bahrom qiyofasining bu xildagi tasviri, shoir ta‘kidicha, ular yashagan zamonlar, XII-XIII asrlardagi adabiy-ijodiy tamoyillar, badiiy an‘analар bilan ham izohlanadi. Chunki mazkur bosqichda tarixiy qahramonlarni tasvirlashda ular shaxsi bilan bog‘langan voqea-hodisalarni aynan ifodalash usuli hukmronlik qilardi. Alisher Navoiy esa faqat Sharq adabiyoti emas, ayni chog‘da G‘arb adabiyotiga ham xos bo‘lgan bu xil an‘analarga zid ravishda tarixiy shaxslarning an‘anaviy qiyofalarini ijodkor belgilagan g‘oyaviy-badiiy niyat asosida keskin o‘zgartirish usulini qo‘llash mutlaqo yangicha va betakror timsollarni yaratishga qo‘l kelishini dastlab “Farhod va Shirin” dostonida isbotlab bergan edi. Shoir o‘zining “Sab‘ai sayyor” dostonida ham shu usulga murojaat qilib, Bahrom qiyofasida chinakam oshiq shoh qiyofasini chizib berdi.

Navoiyning ta‘kidlashicha, Nizomiy va Xisrav Dehlaviylar shoh Bahrom tarixi bilan bog‘liq voqea-hodisalarni madh etish bilangina cheklanib qolganlar. Faqat tarixnigina takrorlash esa ulug‘ ijodkorlarga munosib emasdir, deb yozar ekan, shoir faqat bo‘lib o‘tgan voqealarnigina tasvirlash uchun adabiy asar emas, tarixiy asar yozish kerak edi, degan fikrni bildiradi. Har ikki dostonida o‘zini qoniqtirmagan jihatlar ustida so‘z borar ekan, Navoiy:

*Biri bukim, yo‘q anda moyai dard,  
Qildilar ishq so‘zidin ani fard.  
Kim birov mehrdin bari bo‘lg‘ay,  
Boqma, gar mehri xovariy bo‘lg‘ay.  
...Yana bir buki, anda ba‘zi ish,  
Zohiran nomunosabat tushmish*

deb davom etar, Bahromning yetti qasr qurdirib, ularga yetti mamlakat shohlari qizlarini olib kelib, uyqusi kelmagan chog'larda ularni afsona aytishga majbur qilishini tanqid qilar ekan:

*Tongdin oqshomg'a tegru pay-darpay,  
Ulki ichgay qadah to'la-to'la may.  
Anga xud g'aflat o'ldi da'bu sifat,  
Uyqusig'a fasona ne hojat?  
Bo'lsa ham aql man' qilmasmu,  
Qissa aytur kishi topilmasmu?*

deb yozgan.

Alisher Navoiy dostonining kirish qismlari Sharq adabiyotidagi an'anaga muvofiq Olloh hamdi va Unga munojot, Muhammad rasululloh sallollohu alayhi va sallam na'tlari va me'rojnom (I-IV boblar), so'z ta'rifi (V bob), Nizomiy, Xisrav Dehlaviy, Jomiylar madhi (VI-VII boblar), asarning yaratilish tarixi (VIII bob), Sulton Husayn va malika madhlari (IX-X boblar), shoh Bahrom ta'rifiga bag'ishlangan boblardan iborat bo'lib, asar voqealari esa XII bobdan boshlanadi.

Asarning yaratilish tarixi, nomi, hajmi doston oxiridagi 37-bobda quyidagicha ko'rsatilgan:

*Lutf bu nazm aro bag'oyatdur,  
G'araz ammo yeti hikoyatdur.  
Chunki qoyil yeti musofir edi,  
Ki alar sayr ishiga mohir edi.  
Bo'ldi chun bu raqam ishi tayyor,  
Qo'ydum otini "Sab'ai sayyor".  
Tortqanda bu turfa savtu madin,  
Bayti besh mingta tortti adadin.  
Manga ayyomi garchi yod ermas,  
Leku to'rt oydin ziyod ermas.  
Bo'lsam o'zga umurdin emin,  
Bor edi to'rt hafta ham mumkin.  
...Garchi tarixi erdi sekkiz yuz,  
Sakson o'tmish edi yana to'qqiz.*

Demak, asardan maqsad yetti hikoyat bo'lgani va ularni yettita musofir-sayyoh aytib berishgani uchun shoir uni "Sab'ai sayyor" ("Etti sayyoh") deb nomlagan. Doston 5000 ga yaqin baytdan iborat, uni yozish uchun Navoiy to'rt oy vaqt sarflagan. Agar bu vaqtda davlat va jamoatchilik ishlari bilan ham band bo'lmaganida uni to'rt haftada yozib tugatishim ham mumkin edi, deb ta'kidlaydi shoir. Shu bob oxirrog'ida dostonning 889 (melodiy 1484) yili tugallangani ko'rsatib o'tilgan.

Dostonning asosiy qismlari 24 bobdan iborat bo'lib, keyingi uch bobda shoir o'limning muqarrarligi (36-bob), shoh Bahromni tushida ko'rganligi (37-bob), "Sab'ai sayyor" asari haqidagi fikrlari (38-bob)ni ifoda etib, uni:

*Xalqqa zebi torak ayla ani!  
Uqug'ang'a muborak ayla ani!  
Yetti a'flokni anga yor et!  
Yetti iqlim elin xaridor et!*

degan baytlar bilan tamomlaydi.

## SAB'AI SAYYOR (XII bobdan)

Shoh Bahrom Rum bilan Chinni o'ziga bo'ysundirgach, Chin xoqoni bilan Rum qaysari unga tobe' bo'lib qoladilar. Keyinchalik yetti iqlim shohi unga boj to'laydigan bo'ldi. Farmonga ko'ra xiroj to'lashi kerak bo'lgan har bir hukmdor zarur mablag'ni har yili to'plab poytaxtga o'z vaqtida yuborib turishlari shart edi. Tobe' mamlakatlarda olingan hosildan ham to'xtovsiz sovg'a-salomlar kelib turardi. Shoh Bahrom esa ertadan kechgacha ayshu ishrat bilan band bo'lib, musiqa va ashula tinglash bilan orom olardi. Uning saroyida eng mashhur sozandayu hofizlar to'plangan bo'lib, ular hamma joyda hukmdorga hamrohlik qilishardi.

Shoh Bahrom kunlari ovsiz o'tmas, kechalari esa xilmal xil soz, jonbaxsh ashulalarni tinglashni yoqtirardi. Ov vaqtida qaysi tomonga o'q o'tsa, albatta biror hayvonni qular, ularning qoniga hamrang may ichishdan rohat olardi. Ov qilib borarkan, qayerda biron go'zal manzil duch kelsa, o'sha yerda dam olib qadah ichar, changu rubob kuylaridan huzur qilib, o'zi o'ldirgan hayvonlar go'shtidan kabob tanovvul qilardi.

Bir kuni shoh ov mahali bir maydonda bazm tuzib ishrat bilan band ekan, xonandaning so'lim ashulasi bilan o'z ko'nglini xush etarkan, o'zining butun olamga qiblagoh ekanidan shodlanib: "Xudoyim meni ahli olam hukmdori qilgan ekan, buning shukronasi uchun elni shod aylab, adolat bilan ish yuritishim, muhtojlarga mehribonlik ko'rsatib, beva-bechoralar dillarini xushnud etmog'im zarur", deb xayol surar ekan, chor atrofni tomosha qilib bahra olardi. Shu payt dasht bo'ylab tez-tez yurib borayotgan bir odamga ko'zi tushdi. Yayov yo'l bosayotgan bu insonga achingan shoh unga yaxshilik qilmoqni istab bir mulozimga: "Tezda otingga minginda, yana bir otni yetaklab, hu anavi musofirni to'xtatib, otga mindirgin va uni huzurimga olib kelgin", deb buyurdi. Xizmatkor yigit shoh hukmini bajo qilib, yo'lovchini hukmdor



oldiga boshlab keldi. Shoh Bahrom uni ochiq chehra bilan kutib olib, hol-ahvol soʻradi. Biyobonda kezib yurgan kishi yer oʻpib, taʼzim bajo keltirdi-da, oʻrnidan turib nihoyatda yoqimli soʻzlar bilan shahanshohga shunday maqtoʻv yogʻdirdi-ki, eshitganlar “Ofarin!” deb yubordilar. Hukmdor uni oʻtirishga taklif qildi. Mulozimlar darhol xilma-xil taomlaru, may toʻla idishlarni keltirishib, mehmonga ziyofat qilishga kirishishdi. Musofirning boshi maydan qizib borar ekan, shoh unga ketma-ket savollar berar, u esa oʻzining dono javoblari bilan mezbon koʻngliga shodlik bagʻishlardi. Dasht kezuvchi bu odamning aqlu donishiga qoyil qolgan Bahrom unga murojaat qilib: “Seni koʻp ilmlardan xabardor ekanliging sezilib turibdi. Bu makonda kezib yurishing sababini, oʻzingning kasbu koringu qilgan ishlaringdan soʻzlab bergil, biz ham ulardan bahravor boʻlaylik”, dedi. Mehmon yer oʻpib shunday javob qildi: “Men bu dashtda musofirlardek kezib yurgan boʻlsam ham, oʻz ishimda zamonaning yagonasiman. Doʻstu hamrohlarim yoʻq, hech kimsaga yuragimdagi sirni oshkor qilmaganman. Oʻzimni ham, hozir aytib beradigan sirimni ham odamlardan pinhon tutib yurdim. Bu dashtda kezib yurishimdan maqsadim jahon podshosi boʻlgan shoh Bahrom huzuriga yetib borib, unga yashirgan sirlarimni soʻzlab berish edi. Oʻsha manzilga yetmasimdan bu soʻzni soʻrab qolding. Aytmay desam, maqsadim hosil boʻlmay qoladi. Sen ham shohga oʻxshaysan, Bahrom boʻlmasang ham, maqoming unikidek baland. Sen unga juda ham oʻxshab turibsan.

Koʻnglimni gʻamga solib qoʻyding: aytmasam ham yomon, aytsam ham”. Shoh bu soʻzlardan bogʻ kabi ochilib ketdi-da, chirogʻ shuʼlasi kabi soʻz boshlab, shunday dedi: “Ey dashtda shitob bilan kezib yurgan banda, sen oʻz maqsadingga yetganingdan bexabarsan. Agar Bahromni qidirib yurgan boʻlsang, gapiraver: men sen izlab yurgan shoh Bahromman”.

Musofir bu soʻzni eshitib, sevinib ketdi-da, shukronasiga sajda qilib, moʻl-koʻl duo ayladi, yer oʻpib, odob bilan oʻtirib soʻzga kirishdi: “Shoh mendan ahvolim haqida soʻzlab berishni

so‘ragan edi. Meni jahon eli Moniy deb ataydi. Ko‘pgina bilimlarni bilaman, lekin surat chizishda shuhrat qozonganman”.

Shoh xuddi shunday odamga talabgor edi, Moniy so‘zlaridan quvonchga to‘ldi, o‘lgan odam yana tirilgandek, xursand bo‘lib ketdi. Mehmonni quchoqlab, hurmat ko‘rsatdi, ko‘p lutfu ehsonlar qilib, u aytmoqchi bo‘lgan sir mazmuni haqida savol berdi: “Men yetti iqlimni kezib chiqqanman. Jahondagi bor ajoyibotlarni ko‘rganman. Bir mahal Xitoy tomonga yo‘lim tushdi. U yerda bir savdogar bilan tanishib qoldim. Uning molu dunyosi son-sanoqsiz, puli yuz ming tumandan ham ko‘proq bo‘lib, duru la‘llari dengizu kondek edi.

Ammo uning shunday bir bebaho duri bor ediki, har bir bazmni oy kabi yoritardi. U qiz asli xitoylik bo‘lib, nihoyatda go‘zal va xushovoz edi. Qo‘liga changni olib, navo cheksa, uni ko‘rib, eshitgan har bir odamning joni mingta bo‘lsa, bittasi ham qolmasdi. Mendek kimsa yuz ming til bilan yuz ming yil maqtasam ham uning ta‘rifini tugatolmayman. Qizning xojasi uning go‘zalligini xalqdan asrash uchun sandal va ud daraxtlaridan kajava yasattirgan, unga xilma-xil qimmatbaho matolardan yopib, la‘lu durlar bilan bezagan. Men aytgan go‘zalni o‘sha kajava ichida olib yuradi. Unga atab sandal va uddan chang yasattirgan bo‘lib, uni go‘zal qiz chalib turardi.

Xoja u zuhravash paripaykarni sotmoqchi ham bo‘lgan edi, yuz minglab xaridorlar chiqdi-yu, birontasi ham so‘ralgan narxni berolmadi, chunki uning bahosi Xitoy mamlakatining xirojiga teng edi. Avvaliga uni Xitoy xoqoni sotib olmoqchi bo‘ldi, lekin a‘yonlar bunga qarshi chiqdilar. “Bor davlatingni berib, u qizni sotib olsang, shoh Bahromga yuboriladigan xirojni qanday to‘laysan? Qo‘shin yuborsa, sipohing yo‘q, qurollaring yo‘q, unda holing ne kechadi? Yaxshisi bu istagingdan voz kechgin, nafs deb iztirob chekma, mamlakatingni xarob etma”, deyishdi ular. Shundan so‘ng xoqon o‘z muddaosiga erishish tilagini unutdi. Men esam u go‘zal haqida senga xabar berishga ahd qildim-da, huzuringga



Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq versiyasi  
<https://kitobxon.com/oz/asar/1676> saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ версияси  
<https://kitobxon.com/uz/asar/1676> сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную версию  
можно найти на сайте  
<https://kitobxon.com/ru/asar/1676>